

LINGVOPOETIKA

BADIIY MATNNING LINGVOPOETIK TAHLILI: TARIXI, METODOLOGIYA VA TADQIQOT METODLARI

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/FSSX5369

Nargiza Musulmanova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada badiiy matnning lingvopoetik tahlili, ya'ni tarixi, metodologiya va tadqiqot metodlari haqida gap boradi. O'zbek tilshunosligida ham dunyo tilshunosligidagi kabi badiiy asarlarning tili va uslubini o'rganish ko'plab tadqiqotlarning markaziy muammosi hisoblanadi. Har qanday matnga qo'llanadigan lingvostilistik tahlil o'z tarkibiga ikki bosqichni (darajani) oladi, ya'ni semantik va metasemiotik. Semantik bosqichda til birliklari (so'z, so'z birikmasi, sintaktik konstruksiya) o'zining atash, ya'ni semantik ma'nosida o'rganiladi. Metasemiotik bosqichda esa til birliklarining o'z ma'nosidan badiiy matndagi vazifalarini o'rganishga o'tish bosqichlari o'rganiladi. Ushbu ikkinchi bosqichda aynan grammatik vositalarning o'rni juda ahamiyatli bo'lib, muallif ifodalamoqchi bo'lgan fikrlar grammatik vositalar orqali reallashadi. Endi so'zning leksik ma'nosidan tashqari grammatik ma'nosi ham fikr ifodalashda asosiy qurol hisoblanadi. Maqolada bir qancha rus olimlarining lingvopoetik tadqiqotlari, tahlili usullari haqida ham fikrlar berilgan bo'lib, ularga munosabat bildirilgan. Til va adabiyotning o'zaro integratsiyasi ushbu sohaning paydo bo'lishiga asos bo'lishi va undagi ko'plab misollar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *Lingvistik birlik, lingvopoetika, lisoniy va badiiy tahlil, metasemiotik, semantik, grammatik vosita, sintaktik tahlil, leksik ma'no.*

KIRISH

Odatda, matnlar lisoniy tahlil qilinganda ularda ishlatilgan barcha lingvistik birliklar, vosita va shakllar tahlil qilinadi. Biz esa,

¹ Musulmanova Nargiza Raxmatillaevna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasida dotsenti, f.f.n.

E-manzil: nargizamusulmanova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-0001-1725

Iqtibos uchun: Musulmanova, N. R. 2023. "Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi, metodologiya va tadqiqot metodlari". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2(5): 90-97. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/FSSX5369

o'z oldimizga grammatik vositalarning lingvopoetik tahlilini, ya'ni ularning badiiy matnlarda qo'llanilishini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Avvalambor, badiiy matning lisoniy tahlili, tarixi, tadqiq metodi va metodologiyalari haqida batafsil to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Dunyo tilshunosligida badiiy asarlarning tili va uslubini o'rganish ko'plab tadqiqotlarning markaziy muammosi hisoblanishi sir emas. Badiiy matnni tahlil qilishning bir qancha usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning orasida lisoniy va badiiy tahlil asosiy tur sifatida ajralib turadi. Lisoniy tahlilning boshlang'ich nuqtasi tilshunoslik bo'lib, matnlar umumiy til qoidalarining paydo bo'lishi va ta'siri, ular uchun qanchalik muhimligi kabi omillarni o'rganishda asosiy vosita hisoblanadi.

ASOSIY QISM

V.V.Vinogradovning e'tirof etishicha, lingvopoetik tadqiqotlarning vazifasi badiiy adabiyot namunalarida til birliklarining estetik vazifasini o'rganishdir [Vinogradov 1954, 5-38]. Shunday qilib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik uslublarining tutashishi natijasida filologiyaning yangi – lingvopoetika sohasi paydo bo'ladi va uning predmeti etib, "Badiiy matnda ishlatilgan til birliklarining majmui bo'lib, ular yordamida yozuvchi o'zining g'oyaviy-badiiy fikrlarini namoyon etish uchun zarur bo'lgan badiiy-estetik ta'sirni ta'minlaydi" [Zadornova 1992, 49].

Lingvopoetik tahlilning maqsadi – u yoki bu til birliklarining (so'z, so'z birikmasi, grammatik shakl, sintaktik konstruksiya) muallif tomonidan badiiy ijod namunasiga kiritilishi va ularning o'ziga xos estetik ta'sirni namoyon etishini aniqlashdan iborat [Zadornova 1992, 49].

Ma'lumki, har qanday matnga qo'llanadigan lingvostilistik tahlil o'z tarkibiga ikki bosqichni (darajani) oladi, ya'ni semantik va metasemiotik. Semantik bosqichda til birliklari (so'z, so'z birikmasi, sintaktik konstruksiya) o'zining atash, ya'ni semantik ma'nosida o'rganiladi. Metasemiotik bosqichda esa til birliklarining o'z ma'nosidan badiiy matndagi vazifalarini o'rganishga o'tish bosqichlari o'rganiladi. Ushbu ikkinchi bosqichda aynan grammatik vositalarning o'rni juda ahamiyatli bo'lib, muallif ifodalamoqchi bo'lgan fikrlar grammatik vositalar orqali reallashadi. Endi so'zning leksik ma'nosidan tashqari grammatik ma'nosi ham fikr ifodalashda asosiy qurol hisoblanadi. Ko'pincha yordamchi so'zlar ishtirok etgan gaplar va matnlarda buning yaqqol namoyon bo'lganini ko'rish mumkin. Chunki,

bizga ma'lumki, yordamchi so'zlar grammatik va leksik jihatdan ham so'zlovchi fikrini ifodalashida yordamchi vosita vazifasini bajaradi. Shu o'rinda tilda mavjud bo'lgan barcha grammatik shakllarni ham eslab o'tish lozimki, ularning har biri matnlarda til birliklarini bir-biriga bog'lash va yaxlit fikr tashkil qilish uchun asos bo'ladi. Turli sintaktik va morfologik shakllar nutqiy vaziyat va uslubdan kelib chiqib, turli leksik va grammatik ma'nolarni ham ifodalashi mumkin.

Bunda so'z, ibora va sintaktik qurilmalar matnda kasb etgan konnotatsiyalarning qo'shimcha ma'nosi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Lekin, lingvostilistik tahlil tadqiqotchidan yozuvchining g'oyaviy fikrlariga kirish, uning dunyoqarashi va estetik pozitsiyalarini, badiiy tafakkur usullarini, madaniy-filologik an'analarga munosabati kabi xususiyatlarini o'rganishni talab qilmaydi [Akhmanova, Zadornova 1977, 50-60].

Rus tilshunosligida ko'plab olimlar lingvopoetik tahlil metodlarini ishlab chiqishgan va fanga tadbiq etishgan. V.Ya.Zadornova lingvopoetik tahlil asosida ma'lum bir kategoriya va parametrlar tizimini ishlab chiqqan. Olima lingvopoetik o'zgarish (transformatsiya) kategoriyasini lingvopoetik tahlilning eng asosiy va muhim kategoriyasi sifatida e'tirof etadi. Tilning turli elementlari badiiy asarning estetik ifoda maqsadini ifodalash uchun transformatsiyalanib (o'zgarib) turadi. Eng xususiylashgan kategoriya – bu “so'z polifoniyasi” hisoblanadi. Badiiy asarlarda so'z o'z imkoniyatlarini kengaytirish an'anasiga ega. So'z har bir qo'llanishida bir vaqtning o'zida o'zining barcha – semantik va stilistik yashirin imkoniyatlarini ochiq yoki yopiq (yashirin) holatda namoyon eta olishi mumkin.

Shunday qilib, V.Ya.Zadornovanning fikricha, badiiy matnda so'z qo'shimcha hajm va teranlik kasb etadi va global semantik butunlik sifatida maydonga chiqadi. So'zning ushbu xususiyati badiiy matnning o'ziga xos bir belgisi hisoblanadi. Olimaning bu sohada-gi xizmatlari katta bo'lib, asosiysi – birinchi bo'lib lingvopoetik tahlil metodida kategoriya va parametrlarning tizimi maqsadini aniq shakllantirib berdi [Zadornova 1992, 49].

Shuningdek, lingvopoetik tahlil metodlari bilan O.S.Axmanova, G.V.Stepanov, A.A.Lipgart, Z.B.Yeshmambetova, V.D.Asanova, A.K. Junisbaeva, Ye.V.Somova, S.V.Titova, A.Y.Morozova, V.D.Asanov va boshqa bir qator rus olimlari mukammal shug'ullanishgan va o'zlarining qarashlarini ilmiy tadqiqotlari orqali bayon etishgan.

Xususan, A.A.Lipgart lingvopoetika va lingvostilistika, lingvopoetika va adabiyotshunoslikni o'zaro aloqasini o'rganib chiqadi hamda lingvostilistik tahlil barcha keyingi (navbatdagi) lingvopoetik

tuzilmalar (konstruksiylar)ning zaruriy asosi ekanligini ta'kidlaydi. Olim ilmiy ishining alohida qismi lingvopoetik tadqiqotlarning aniq usullarini tavsiflashga bag'ishlangan. Uning ishlarida o'z aksini topgan lingvopoetik tadqiqotlar aniq metodlarning ko'rsatib berilishi olimning katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, olim birinchilardan bo'lib, lingvopoetik tahlilni ham sinxron, ham diaxron aspektida amalga oshirish imkoni borligini e'tirof etadi [Lipgard 1996, 23].

“Lingvopoetika” atamasini ishlatganda u ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tadqiqot yo'nalishini belgilashda ishlatilishini unutmaslik lozim. Ulardan **birining** maqsadi u yoki bu badiiy asar yoki asarlar turkumida qo'llanilgan alohida badiiy usullarning mavzuvii stilistik tavsiflarini aniqlanishidir. Ushbu tadqiqot turkumiga Z.B.Yeshmambetovanning tadqiqot ishini kiritish mumkin, chunki unda ilk bora drammatik janrdagi asarlarning lingvopoetik tahlili lingvopoetik muammo sifatida o'rganilgan va asarlardagi muallif nutqi hamda personaj nutqining mosligini tadqiq qilingan [Yeshmambetova 1984, 46]. V.D.Asanovning tadqiqotlarida U.Shekspir pyessalari materiali asosida nazm va nasrning almashinishi lingvopoetik funksiyasi (vazifasi) o'rganilgan [Asanov 1988, 25]. A.K. Junisbaevanning tadqiqotida personaj obrazining lingvopoetik tavsifini o'rganish markaziy muammo hisoblanadi [Junisbaeva 1984, 25]. Y.V.Somovanning tadqiqot ishida birinchi marotaba muallifning personajga munosabatini ifodalovchi lingvopoetik vositalar o'rganilgan [Somova 1989, 28]. S.V.Titovanning dissertatsiyasida esa og'zaki-badiiy asarlarda so'z birikmalarining lingvopoetik funksiyalari (vazifalari)ni ochib berish metodi tadqiq etilgan [Titova 1990, 25].

Ikkinchi tadqiqot yo'nalishi – muayyan g'oyaviy-badiiy mazmunni uzatishda va ma'lum bir estetik ta'sirni (effekt) yaratishda formal til elementlari rolini aniqlashga qaratilgan alohida badiiy matn tadqiqoti hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarga lingvopoetik metod turli tillardagi poetik asarlarda ishlab chiqilgan va tadbiq etilgan bo'lib, V.Y.Zadornovanning ishlarini bunga yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin [Zadornova 1992,49].

XULOSA

Shuningdek, Y.B.Borisova o'z tadqiqotlarida hajmi jihatidan katta bo'lgan nasriy asarlarni (romanlarni) qiyosiy-chog'ishtiruv asosida matnlarning mavzuvii bo'linishi (rassloenie) metodi orqali lingvopoetik tahlil qilishga urinishlar bo'ldi va uning lingvopoetik tahliliga ingliz tilida yozilgan hamda rus tiliga tarjima qilingan mat-

nlarning peyzaj tasvirlari tortilgan [Borisova 1989, 32].

Ammo, har ikkala ilmiy qarashlarning markazida bitta – matnning formal va mazmuniy tomonini bir vaqtning o'zida ko'rib chiqish prinsipi turganligi sababli, ular *“lingvopoetika”* termini bilan birlashtirilgan.

Adabiyotlar

- Akhmanova, O., Zadornova V. 1977. On Linguopoetic Stratification of Literary Text // Poetica. An International Journal of Linguistic-Literary Studies. Tokyo, №7. P. 50–60.
- Musulmanova, Nargiza. 2023. *Lingvopoetika – til va adabiyot mushtarakligi*. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.78. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7786551>
- Xo'jayev, Nasim. 2022. *Abdulla Oripov she'riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari*. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 281-bet.
- Асанов, В.Д. 1988. Лингвопоэтическая функция смены стиха и прозы в творчестве Шекспира. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М.
- Борисова, Е.Б. 1989. Перевод как словесно-художественное творчество и как результат научно-филологического анализа текста. Авто-реф. дисс. ... канд. филол. наук. М.
- Виноградов В.В. 1954. Язык художественного произведения // Вопросы языкознания. №5. С. 29; С.5-38.
- Ешмамбетова З.Б. 1984. Соотношение авторской речи и речи персонажа как лингвопоэтическая проблема (на материале английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М.
- Жунисбаева А.К. 1984. Лингвопоэтическая характеристика образа литературного персонажа. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М.,
- Задорнова В.Я. 1992. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. М., С. 19; 49 с.
- Линграт А.А. 1996. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и прагматика (на материале английской литературы 16-20 веков). Дисс. ... докт. филол. наук. М., С. 23.
- Сомова Е.В. 1989. Лингвопоэтические средства выражения авторского отношения к персонажу. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М.,
- Титова С.В. 1990. Лингвопоэтическая значимость словосочетания в описании внешности персонажей (на материале английской прозы XVIII–XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 182 с.

Кади́рова, Х. 2021. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. – AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>

Кади́рова Х. Б. 2021. Эвфемический и дисфемический смысл в структурно-прагматическом анализе // Мировая наука. – No. 4. – С. 123-125. URL: https://www.researchgate.net/profile/Xurshida-Kadirova/publication/352902189_EVFEM-ICESKIJ_I_DISFEMICESKIJ_SMYSL_V_STRUKTURNO-PRAG-MATICESKOM_ANALIZE/links/60ded7dca6fdccb745fc067c/EVFEMICESKIJ-I-DISFEMICESKIJ-SMYSL-V-STRUKTUR-NO-PRAGMATICESKOM-ANALIZE.pdf.

LINGUISTIC ANALYSIS OF THE ARTISTIC TEXT: HISTORY, METHODOLOGY AND RESEARCH METHODS

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/FSSX5369
Nargiza Musulmanova¹

Abstract

This article will talk about the linguistic analysis of the artistic text: history, methodology and research methods. In Uzbek linguistics, the study of the language and style of works of art, as in World linguistics, is the central problem of many studies. Linguistic analysis, which applies to any text, takes two stages (levels) into its composition, namely semantic and metasemiotic. In the semantic stage, Language units (word, vocabulary, syntactic construction) are studied in their own sense of atash, that is, semantic. And in the metasemiotic stage, the stages of the transition from the meaning of language units to the study of their functions in an artistic text are studied. In this second stage, it is precisely the role of grammatical means that becomes very significant, and the thoughts that the author

¹ *Musulmanova Nargiza Rakhmatilayevna* – Doctor of filology, docent of the Department of Uzbek language education in foreign language groups, Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: nargizamusulmanova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-0001-1725

For reference: Musulmanova, N.R. 2023. "Linguistic analysis of the artistic text: history, methodology and research methods". Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 2(5): 90-97. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/FSSX5369

wants to express are made real by grammatic means. Now, in addition to the lexical meaning of the word, the grammatical meaning is also the main weapon in the expression of thought. The article also comments on the methods of linguopoetic research, analysis of several Russian scientists have been made and reacted to them. The mutual integration of language and literature is the basis for the emergence of this field, and many examples in it have been drawn into analysis.

Keywords: *Linguistic unity, linguopoetics, linguistic and artistic analysis, metasemiotic, semantic, grammatical means, syntactic analysis, lexical meaning.*

References

- Akhmanova, O., Zadornova V. 1977. On Linguopoetic Stratification of Literary Text // Poetica. An International Journal of Linguistic-Literary Studies. Tokyo, №7. P. 50–60.
- Musulmanova, Nargiza. 2023. *Lingvopoetika – til va adabiyot mushtarakligi*. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.78. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7786551>
- Xo‘jayev, Nasim. 2022. *Abdulla Oripov she‘riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari*. O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 281-bet.
- Asanov, V.D. 1988. *Lingvopoeticheskaya funktsiya smeni stixa i prozi v tvorchestve Shekspira*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. M.
- Borisova, Ye.B. 1989. *Perevod kak slovesno-xudojestvennoe tvorchestvo i kak rezultat nauchno-filologicheskogo analiza teksta*. Avto-ref. diss. ... kand. filol. nauk. M.
- Vinogradov V.V. 1954. *Yazik xudojestvennogo proizvedeniya* // Voprosi yazikoznaniya. №5. S. 29; S.5-38.
- Yeshmambetova Z.B. 1984. *Sootnoshenie avtorskoy rechi i rechi personaja kak lingvopoeticheskaya problema (na materiale angliyskogo yazika)*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. M.
- Junisbaeva A.K. 1984. *Lingvopoeticheskaya xarakteristika obraza literaturnogo personaja*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. M.
- Zadornova V.Ya. 1992. *Slovesno-xudojestvennoe proizvedenie na raznix yazikax kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya*. Avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk. M., S. 19; 49s.
- Lipgrat A.A. 1996. *Lingvopoeticheskoe issledovanie xudojestvennogo teksta: teoriya i pragmatika (na materiale angliyskoy literaturi 16-20 vekov)*. Diss. ... dokt. filol. nauk. M., S. 23.
- Somova Ye.V. 1989. *Lingvopoeticheskie sredstva virajeniya avtorskogo ot-nosheniya k personaju*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. M.
- Titova S.V. 1990. *Lingvopoeticheskaya znachimost slovosochetaniya v opisani vnesnosti personajey (na materiale angliyskoy prozi XVIII–XX vv.)*. Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. M., 182 s.
- Kadirova, X. 2021. *Problemi peremeni evfemizmov i disfemizmov v xudojestvennom perevode*. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal.

– AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>

Kadirova X. B. 2021. Evfemicheskiy i disfemicheskiy smisl v strukturno-pragmaticheskom analize // Mirovaya nauka. – No. 4. – S. 123-125. URL: https://www.researchgate.net/profile/Xurshida-Kadirova/publication/352902189_EVFEMICESKIY_I_DISFEMICESKIY_SMYSL_V_STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM_ANALIZE/links/60ded7dca6fdccb745fc067c/EVFEMICESKIY-I-DISFEMICESKIY-SMYSL-V-STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM-ANALIZE.pdf.